

Hokim yordamchilari uchun o'quvlar tashkil etilmoqda



Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashabbusi bilan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha mahallalarda joriy etilgan yangi lavozim Hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Mahallabay ishlash markazi uchun yangi joriy etilayotgan tizimning mohiyati va samarali faoliyat ko'rsatishi bo'yicha Termiz davlat universitetida seminar-treninglar va amaliy mashg'ulotlar bo'lib o'tmoqda.

Respublika miqyosida tashkil etilgan o'quv-seminarining dastlabki bosqichi 22-27 noyabr kunlari bo'lib o'tdi. Kuni kecha boshlangan seminarning ikkinchi bosqichi 4 dekabrda yakunlanadi. O'quv-seminariga birinchi bosqichda o'qib sertifikat olgan 20 dan ortiq trenirlar jalb qilingan.

Mazkur seminarga 85 nafar tinglovchi qamrab olingen bo'lib, ularga yangi tizimning mazmun-mohiyati tushuntirilmoqda. Hokim yordamchilarining vazifalari, ularga qo'yilayotgan talablar to'g'risida atroflicha ma'lumotlar berilmoqda. Ushbu seminarning ahamiyatli tomoni, nazariya va amaliyot uyg'un holda tashkil etilayotganidadir.

Dastlab o'quv mashg'ulotlarini viloyat hokimi o'rribosari Fayzulla Mamanov ochib berdi. Va tinglovchilarga ushbu tizim yaxshi samara berishi va keljakda joylarda, mahallarada tadbirkorlikni rivojlantirish, ish o'rnlari tashkil etish va aholining muammo va masalalarini mahallaning o'zida hal etish choralar ko'rilib qilingan. Ushbu tizimning mazmun-mohiyati tushuntirilmoqda. Hokim yordamchilarining vazifalari, ularga qo'yilayotgan talablar to'g'risida atroflicha ma'lumotlar berilmoqda. Ushbu seminarning ahamiyatli tomoni, nazariya va amaliyot uyg'un holda tashkil etilayotganidadir.

Mazkur o'quv-seminar yakunida tinglovchilardan test olinadi va ularga trenir sifatida sertifikat topshiriladi, - deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi kafedra mudiri Aktam Xolov. - Ular uchinchi bosqichda tashkil etiladigan o'quvlarda trenirlik qilishadi. Maqsad esa aholi o'rtasida tadbirkorlik qobiliyatini oshirish, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan. Hokim yordamchilari esa bunda drayver vazifasini bajarishi va aholi bilan bu borada hamkorlikda ish olib borishi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham ular uchun mana shunday o'quv-seminarlar yo'lga qo'yilmoqda.

Seminarning uchinchi bosqichi esa shahar va tumanlar miqyosida bo'lib o'tishi rejalashtirilgan.